



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 7-16 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MAMLAKATIMIZDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASH



Farmonov Dilshodbek Daminovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Sirtqi ta'lim fakulteti bosh mutaxassisi

E-mail: dilshodbekfarmonov0920@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati, uning tarkibiy omillari hamda uni baholash mezonlari tahlil qilingan. Kichik biznesning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari, eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, shuningdek, davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoritib berilgan. Maqolada statistik ma'lumotlar asosida kichik tadbirkorlikning mamlakat eksportidagi ulushi o'rganilib, uning so'nggi yillardagi o'sish tendensiyalari aniqlangan. Shu bilan birga, kichik korxonalarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlar — innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, eksport infratuzilmasini rivojlantirish va institutsional qo'llab-quvvatlash choralariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari kichik tadbirkorlikni tashqi iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etishini ta'minlash va eksport hajmini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik, eksport salohiyati, tashqi iqtisodiy faoliyat, davlat qo'llab-quvvatlovi, innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, eksport infratuzilmasi, iqtisodiy rivojlanish, eksport siyosati.

Аннотация: В данной статье проанализирован экспортный потенциал субъектов малого предпринимательства в экономике Узбекистана, его структурные компоненты и критерии оценки. Рассмотрены возможности выхода малого бизнеса на внешние рынки, внутренние и внешние факторы, влияющие на экспортную деятельность, а также механизмы государственной поддержки. На основе статистических данных исследована доля малого предпринимательства в общем объеме экспорта страны и выявлены тенденции её роста за последние годы. Особое внимание уделено эффективным механизмам повышения экспортного потенциала малых предприятий — внедрению инновационных подходов, цифровых технологий, развитию экспортной инфраструктуры и институциональной поддержки. Результаты исследования направлены на выработку практических рекомендаций по расширению участия малого бизнеса во внешнеэкономической деятельности и увеличению объемов экспорта.

Ключевые слова: малое предпринимательство, экспортный потенциал, внешнеэкономическая деятельность, государственная поддержка, инновационные подходы, цифровые технологии, экспортная инфраструктура, экономическое развитие, экспортная политика.

Abstract: This article analyzes the export potential of small business entities in Uzbekistan's economy, its structural components, and assessment criteria. The study examines opportunities for small enterprises to enter foreign markets, internal and external factors influencing export activities, as well as government support mechanisms. Based on statistical data, the share of small business in the country's total exports is examined, and recent growth trends are identified. Particular attention is given to effective mechanisms for enhancing export potential — including the implementation of innovative approaches, digital technologies, development of export infrastructure, and institutional support measures. The research results provide practical recommendations aimed at increasing the participation of small businesses in foreign economic activities and expanding export volumes.

Keywords: small business, export potential, foreign economic activity, government support, innovative approaches, digital technologies, export infrastructure, economic development, export policy.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash jarayonida kichik tadbirkorlik va xususiy biznesning roli tobora ortib bormoqda. Jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, kichik tadbirkorlik subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, bandlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kichik biznesning eksport faoliyati nafaqat milliy iqtisodiyotning tashqi savdodagi ulushini oshiradi, balki valyuta tushumlarini ko'paytirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish va innovatsion rivojlanishga zamin yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni eksport faoliyatiga keng jalb etish bo'yicha qator davlat dasturlari va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, tashqi bozorlarga chiqishda marketing va logistika xizmatlarini rivojlantirish, bojxona va soliq imtiyozlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlar natijasida ushbu sohada sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Shunga qaramay, kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati hali to'liq darajada o'z salohiyatini namoyon eta olmayapti. Eksport hajmlarining nisbatan pastligi, xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ulushining yetarli emasligi, tashqi savdo

infratuzilmasining cheklanganligi kabi omillar bu boradagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2015-yilda 64,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda 67,2 foizgacha ko'tarilgan. Biroq keyingi yillarda bu ko'rsatkichda ma'lum pasayish kuzatilib, 2019-yilda 58,5 foiz, 2022-yilda 54,6 foiz, 2024-yilda esa 54,3 foizni tashkil etdi. Bu esa kichik biznes sektorining milliy iqtisodiyotdagi ulushi barqaror bo'lishiga qaramay, uning o'sish sur'atlari biroz sustlashganini ko'rsatadi.

Mazkur holat kichik tadbirkorlik subyektlarining ichki bozor bilan bir qatorda tashqi bozorlarda ham faol ishtirok etish salohiyatini baholash zarurligini taqozo etadi. Chunki eksport faoliyatining kengayishi kichik biznes uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Shu sababli, kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholash, uni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillarni aniqlash ushbu maqolaning asosiy ilmiy maqsadini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport ko'rsatkichlari, ularning tarmoq va hududiy tarkibi, shuningdek, eksportni rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligi iqtisodiy tahlil asosida o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport salohiyatini baholash masalasi iqtisodiyotni modernizatsiyalash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va tashqi savdo siyosatini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Bu borada mamlakatimiz rahbarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularning eksport salohiyatini oshirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro bozorlarga olib chiqish yo'nalishida ilgari surgan bir qator tashabbuslari mavjud. Ushbu tashabbuslar orqali kichik biznes uchun qulay huquqiy muhit yaratish, eksport faoliyatini moliyaviy va tashkiliy jihatdan rag'batlantirish, shuningdek, eksportyor korxonalar uchun zamonaviy logistika va sertifikatlash infratuzilmasini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Prezidentimizning 2023-yil 10-noyabrdagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son Farmoni mamlakatda tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur hujjatda "kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining real ehtiyoj va talablaridan kelib chiqib, ularni kompleks tarzda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha yordam instrumentlarini mustaqil joriy etish, shuningdek, tadbirkorlarning mavjud imtiyoz va moliyaviy yordam choralardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish"¹ masalalari ilgari surilgan.

Ushbu Farmonning ahamiyati shundaki, u kichik biznesni moliyaviy jihatdan rag'batlantirishni faqat kreditlash bilan cheklab qolmasdan, balki innovatsion, eksportga yo'naltirilgan va texnologik yangiliklarga asoslangan tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratishni ham nazarda tutadi. Bu esa o'z navbatida, mamlakat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son Farmoni

iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va hududlar kesimida kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son qarori kichik biznesni institutsional qo'llab-quvvatlashning muhim bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjatda kichik tadbirkorlik subyektlariga biznes loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va amaliyotga tatbiq etishda ko'maklashish, shuningdek, ularga konsalting, marketing va menejment sohalarida kompleks xizmatlar ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish vazifasi belgilab berilgan.

Qarorga muvofiq, "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida jami 14 ta kichik biznesga ko'maklashish markazlari tashkil etilishi rejalashtirilgan"² bo'lib, bu markazlar kichik biznes vakillarining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, biznes g'oyalarni sifatli loyiha darajasiga olib chiqish, hamda ularni mahalliy va xorijiy investitsiyalar bilan bog'lash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Ushbu qaror kichik tadbirkorlikning eksport salohiyatini oshirishda ham muhim o'rin tutadi, chunki u hududlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirish, yangi tashabbuslarni iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan yo'naltirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik tadbirkorlikning eksport salohiyatini oshirish ko'plab omillarga – davlat qo'llab-quvvatlovi, infratuzilma rivoji, innovatsion faollik, klasterlashuv va xalqaro hamkorlik darajasiga – bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi o'ziga xos ichki muammolar, jumladan, eksportchi korxonalar sonining cheklanganligi, marketing va logistika xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmagani, hamda xorijiy bozorlarda brendlash strategiyasining sustligi mavjud.

Demak, mavjud adabiyotlar tahlili kichik tadbirkorlik eksport salohiyatini baholashda kompleks yondashuvni – iqtisodiy, tashkiliy va hududiy jihatlarni birgalikda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur ilmiy ishlarda ishlab chiqilgan nazariy g'oyalar ushbu maqolaning metodologik asosini tashkil etadi.

A. Jo'raev (2020) o'z tadqiqotida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini kengaytirishda mavjud infratuzilmaning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Muallifga ko'ra, kichik biznes subyektlari eksport salohiyatidan to'liq foydalanishi uchun hukumat tomonidan yaratilayotgan eksportni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar samarali ishlashi lozim.

Sh. Yusupov (2019) o'zining ilmiy maqolasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportga chiqishdagi asosiy to'siqlarini tahlil qilgan. Uning fikricha, asosan axborot tanqisligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, hamda tashqi bozorlar to'g'risidagi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son qarori

bilim va tajribaning yetarli emasligi ularning eksport salohiyatini pasaytiradi. Shuningdek, muallif eksportga yo'naltirilgan kichik korxonalar uchun maxsus konsalting xizmatlarini kengaytirishni taklif etadi.

M. Porter (1990) o'zining mashhur "Milliy ustunlik" nazariyasida mamlakatlar raqobatbardoshligini aniqlovchi omillarni tahlil qilib, kichik biznes subyektlarining tashqi bozorda raqobatga bardosh berish salohiyatini rivojlantirish uchun klasterlashuv (ya'ni geografik yaqin joylashgan korxonalarning hamkorligi) muhimligini ta'kidlagan. Bu yondashuv kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportga chiqish imkoniyatlarini oshiradi.

R. Khasanov (2021) kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatida marketing strategiyalarining tutgan o'rnini o'rganib, ularning mahsulotlarini xorijiy bozorlarda ilgari surish uchun mahalliy sharoitga mos, moslashuvchan marketing yondashuvlarini ishlab chiqish zarurligini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport faoliyatini tizimli tahlil qilish, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va eksport salohiyatini baholashga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlarga tayanadi. Tadqiqotda tizimli, dinamik va statistik tahlillari qo'llanildi.

Birinchidan, tizimli yondashuv asosida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, ularning ishlab chiqarish hajmi, eksport imkoniyatlari hamda davlat tomonidan yaratilgan qo'llab-quvvatlov mexanizmlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Ushbu yondashuv kichik biznesning eksport salohiyatini shakllantiruvchi omillarni kompleks ko'rinishda tahlil qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, statistik tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2015–2024 yillar oralig'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, eksport hajmlari va ularning o'sish dinamikasi o'rganildi. Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi ochiq manbalari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlariga tayangan holda tahlil qilindi.

Uchinchidan, dinamik tahlil orqali kichik tadbirkorlik subyektlarining milliy iqtisodiyotdagi ulushi va eksport salohiyatining yillik o'zgarish tendensiyalari aniqlanib, ularning pasayish yoki o'sish omillari iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholandi. Xususan, 2015–2024 yillar mobaynida kichik biznesning YaIMdagi ulushi 64,6 foizdan 54,3 foizgacha pasaygani qayd etilib, ushbu tendensiya eksport faoliyatidagi faollik bilan solishtirildi.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida kichik biznes eksport salohiyatining o'zgarish dinamikasi aniqlanadi hamda o'sish yoki pasayish tendensiyalarining iqtisodiy sabablari ochib beriladi. Shunday qilib, mazkur metodologiya kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari va tahlil

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksportdagi o'rni yildan-yilga o'zgarib bormoqda. Davlat tomonidan eksport faoliyatini rag'batlantirish, tashqi bozorlar bilan hamkorlikni kengaytirish va eksport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida bu yo'nalishda muayyan ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. 2015 yilda mamlakat bo'yicha kichik tadbirkorlarning eksport

hajmi 3377,7 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 8973,3 mln dollarga yetgan. Bu esa 2,6 martadan ortiq o'sishni bildiradi (1-jadval).

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot(ishlar,xizmatlar) eksporti hajmi (1-jadval).³

mln.AQSH.dol											
T/r	Klassifikator	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	O'zbekiston Respublikasi	3377,7	3139,2	2759,3	3810,8	4714,8	3100,9	3335,2	6157,5	6938,3	8973,3
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	27,1	32,5	40	46,8	88,4	78,2	84,6	57,7	79,3	144,7
3	Andijon viloyati	105	191,7	223,7	268,7	288,7	252,5	357,6	465,7	340,1	432,7
4	Buxoro viloyati	115	68,5	84,3	96,7	182,2	101	120,8	167,2	137,3	167,4
5	Jizzax viloyati	37,6	74,4	88,2	68,8	80,7	76,5	90,6	98,4	76	129,9
6	Qashqadaryo viloyati	24,4	61,9	86,5	103	145,3	110,7	139,1	118,3	96	104,9
7	Navoiy viloyati	65,9	76,7	60,4	103,4	95,2	50,3	59,2	50,7	60,3	84,2
8	Namangan viloyati	85	139,1	177	209	291,2	197,8	246,8	259,6	244,7	294,2
9	Samarqand viloyati	173,7	213,6	214,8	251,1	305,5	191,8	243	323,5	315,2	393,2
10	Surxondaryo viloyati	72,8	54,7	109	168,5	176,9	134,8	141	145,6	157,4	233,2
11	Sirdaryo viloyati	90,4	72,4	103,9	96,4	105	143,6	178,5	226,7	212	177,1
12	Toshkent viloyati	651,3	316,4	280,6	405,6	530,1	501,9	469,8	609,2	613,4	668,1
13	Farg'ona viloyati	140	142,5	227,4	221,5	306,5	319	393	428	466,1	504,5
14	Xorazm viloyati	19,7	36,5	61,6	76,9	131,1	119	119,7	143,8	193	254,8
15	Toshkent shahri	640	469	526	725,1	734,2	578,1	685,5	1020,2	1155,7	1153,7

Yuqoridagi jadvalni hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri va Toshkent viloyati mamlakat eksportida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. 2024 yilda Toshkent shahri eksport hajmi 1153,7 mln dollar, Toshkent viloyati esa 668,1 mln dollarni tashkil etgan. Bu hududlarda ishlab chiqarish, logistika va tashqi savdo infratuzilmasining rivojlanganligi eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Namangan, Farg'ona va Samarqand viloyatlari ham kichik biznes eksportida barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Masalan, Namangan viloyatida 2015 yilda 85 mln dollar bo'lgan eksport hajmi 2024 yilda 294,2 mln dollarga yetgan. Farg'ona viloyatida esa shu davrda eksport hajmi 140 mln dollardan 504,5 mln dollarga oshgan.

Sirdaryo, Surxondaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlarida ham so'nggi yillarda ijobiy dinamikani kuzatish mumkin. Xorazm viloyatida 2015 yilda 19,7 mln dollar bo'lgan eksport hajmi 2024 yilda 254,8 mln dollarga yetgan bo'lib, bu deyarli 13 barobar o'sish demakdir. Biroq ayrim hududlarda, xususan, Navoiy viloyatida, 2015–2024 yillar oralig'ida eksport hajmlarida biroz tebranishlar mavjud. Bu holat hududning ishlab

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti

chiqarish tarkibi va eksport yo'nalishlarining xomashyo bozorlariga bog'liqligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 2015–2024 yillar mobaynida kichik tadbirkorlarning eksport hajmlari mamlakat bo'yicha barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu sohada olib borilayotgan iqtisodiy liberallashtirish siyosati, eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari va hududiy sanoat zonalarining faoliyati o'z samarasini bermoqda.

Quyidagi jadvalda esa 2015–2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi va uning barcha hududlari kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi ko'rsatilgan. Unda har bir viloyat bo'yicha kichik biznes eksportining umumiy eksportdagi foiz ulushi dinamikasi aks ettirilib, bu ko'rsatkichlar orqali hududlar o'rtasidagi farqlar va o'zgarish tendensiyalarini kuzatish mumkin.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot(ishlar,xizmatlar) eksportidagi ulushi (1-jadval)⁴

foizda

T/r	Klassifikator	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	O'zbekiston Respublikasi	27	26	22	27,2	27	20,5	20	31,2	27,9	33,3
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	28,4	7,6	8,6	10,2	20,5	21,6	20,3	16,4	24,3	34,4
3	Andijon viloyati	50,8	72	56,1	75,3	57,8	43,2	36,5	37,4	29,2	36,3
4	Buxoro viloyati	35,8	26,1	41,8	51,7	68,6	43,7	38,7	54,5	45,6	56,4
5	Jizzax viloyati	41,8	61,4	75,8	90,3	67,1	61,6	46,3	49,3	43,3	62,4
6	Qashqadaryo viloyati	9	25,9	38,2	38	39,7	56,7	51,5	39,3	22,5	20,4
7	Navoiy viloyati	14,9	21,5	20	29,5	26,2	11,8	11,6	8,7	9,3	7,6
8	Namangan viloyati	75,9	87,4	90	84,5	81,8	52	49,7	44,4	42,5	49,3
9	Samarqand viloyati	74,6	82,4	82,6	79,6	76,7	57,2	45,7	50,8	41,1	45,1
10	Surxondaryo viloyati	34	36,9	69,3	87,9	73,4	63,1	60	64	71,5	86,5
11	Sirdaryo viloyati	64,3	63,6	71,9	81	79,7	79,9	76,3	69,2	63,4	62,4
12	Toshkent viloyati	39,8	28,7	20	26,4	29,8	28,1	23,4	29,8	32,5	34,7
13	Farg'ona viloyati	36,7	36,1	44,2	45,7	53,4	57,4	49	51,6	68,2	61,1
14	Xorazm viloyati	17,7	38,2	50,2	75,3	89,3	70,2	51,8	58,2	63,4	66
15	Toshkent shahri	24,1	18,3	19,4	25	23	19,8	17,8	21,7	21,2	20,9

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi 2015-yilda 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 27,2 foizgacha ko'tarilgan. 2020-yilda esa pandemiya ta'siri natijasida 20,5 foizgacha kamaygan. 2022-yildan boshlab kichik biznes eksportidagi faollik tiklana boshlagan va 2024-yilda 33,3 foizga yetgan. Bu holat kichik tadbirkorlik eksport salohiyatining so'nggi yillarda tiklanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi.

Hududlar bo'yicha ma'lumotlar kichik biznes eksportida mintaqaviy tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Misol uchun, Namangan viloyati 2015–2019-yillar davomida kichik biznes eksportida yetakchi bo'lib, ulushi 2017-yilda 90 foiz, 2019-yilda 81,8 foizni

⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti

tashkil etgan. 2020–2024-yillarda esa biroz pasayish kuzatilib, 2024-yilda 49,3 foizgacha tushgan. Bu pasayish ichki bozor hajmining kengayishi va eksport tarmoqlarining qayta yo'naltirilgani bilan izohlanadi. Surxondaryo viloyatida esa eksportdagi kichik biznes ulushi 2015-yilda 34 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 86,5 foizgacha o'sdi. Ushbu o'sish viloyatda meva-sabzavotchilik, to'qimachilik va qurilish materiallari eksportining oshgani bilan bog'liq. Jizzax viloyatida 2015–2018-yillar oralig'ida keskin o'sish kuzatilib, ulush 2018-yilda 90,3 foizni tashkil etgan. 2020-yildan keyin biroz pasaygan bo'lsa-da, 2024-yilda 62,4 foiz darajasida barqarorlashgan. Buxoro va Xorazm viloyatlarida ham ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Masalan, Buxoro viloyatida 2015-yildagi 35,8 foizdan 2024-yilda 56,4 foizgacha, Xorazm viloyatida esa 17,7 foizdan 66 foizgacha ko'tarilgan. Aksincha, Navoiy viloyatida kichik biznesning eksportdagi ulushi pastligicha qolmoqda: 2015-yilda 14,9 foiz, 2024-yilda esa atigi 7,6 foizni tashkil etgan. Bu hududning asosan yirik sanoat korxonalari ustunligi bilan izohlanadi. Toshkent shahrida ko'rsatkich barqaror past bo'lib, 2015-yilda 24,1 foiz, 2024-yilda 20,9 foizni tashkil etgan. Bu esa kichik biznes eksportining poytaxtdagi ulushi hali yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi.

Umumiy olib qaraganda, 2015–2024-yillar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes eksport faoliyatida hududlararo nomutanosiblik mavjud. Namangan, Surxondaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari yuqori eksport faolligi bilan ajralib tursa, Navoiy va Toshkent shahri kabi hududlarda bu ko'rsatkich ancha past. Umuman olganda, kichik tadbirkorlikning eksportdagi ulushi mamlakat miqyosida so'nggi uch yilda o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Bu o'zgarishlar kichik biznes subyektlari uchun davlat tomonidan yaratilayotgan soliq va bojxona imtiyozlari, eksportni sug'urtalash mexanizmlari, hamda eksport kreditlari samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, eksport salohiyatini yanada kengaytirish uchun hududlarda marketing markazlarini tashkil etish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish va innovatsion mahsulotlar eksportini kengaytirish zarur.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik so'nggi yillarda tashqi savdo tizimida tobora muhim rol o'ynay boshladi. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2015–2024 yillar davomida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 64,6 foizdan 54,3 foizgacha kamaygan bo'lishiga qaramay, eksport faoliyatidagi ulushi barqaror o'sib bormoqda: 2015 yildagi 27 foizdan 2024 yilda 33,3 foizga oshgan. Bu esa ichki ishlab chiqarishda ulushning pasayishi fonida eksportda kichik tadbirkorlarning faolligi va tashqi bozorga chiqish salohiyati ortayotganini ko'rsatadi.

Eksport hajmlarida ham sezilarli dinamik o'sish qayd etildi: 2015 yilda 3,38 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan kichik tadbirkorlar eksporti 2024 yilda 8,97 mlrd dollarga yetgan. Bu ko'rsatkich 2,6 barobarga o'sishni anglatadi. Hududiy kesimda bu o'sish notekis bo'lsa-da, Surxondaryo, Namangan, Jizzax, Farg'ona va Xorazm viloyatlari eksportdagi ulush va hajmlar bo'yicha yetakchi pozitsiyada bo'ldi. Ayniqsa, Namangan viloyatida 2017 yilda kichik tadbirkorlarning eksportdagi ulushi 90 foizga yaqin bo'lib, 2024 yilda ham yuqori ko'rsatkichlar saqlanib qolmoqda. Surxondaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich 2024 yilda 86,5 foizga yetib, eng yuqori natijani qayd etdi.

Shuningdek, Toshkent shahri va Toshkent viloyati eksport hajmlarida yetakchilik qilmoqda. Bu hududlarda infratuzilmaning rivojlanganligi, logistika va eksport yo'llarining qulayligi kichik biznesning tashqi bozorga chiqishini osonlashtirgan. Biroq ayrim hududlarda, jumladan Navoiy viloyatida, kichik tadbirkorlarning eksportdagi ulushi yillar davomida pasayib borgan — bu esa eksportning yirik korxonalar qo'lida to'planganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Biroq bu salohiyat hududlar bo'yicha teng taqsimlanmagan va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yanada takomillashtirilishga zarurati mavjud.

Shu boisdan, ushbu ilmiy tadqiqot natijalari asosida kichik biznesning eksport salohiyatini yanada rivojlantirish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surildi:

➤ Hududiy eksport infratuzilmasini kuchaytirish, hududlar o'rtasidagi katta tafovutni kamaytirish uchun eksport infratuzilmasini — logistika markazlari, eksport terminali, sertifikatlash laboratoriyalari va maxsus texnoparklarni — barcha viloyatlarda bosqichma-bosqich joriy etish zarur;

➤ Kichik tadbirkorlar uchun eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, eksport bilan shug'ullanayotgan kichik korxonalar uchun soliq imtiyozlari, eksport kreditlari va subsidiyalarni ko'paytirish, eksport sug'urtasi tizimini takomillashtirish zarur;

➤ Tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, hududiy tadbirkorlar uchun xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport marketingi bo'yicha konsalting xizmatlarini subsidiyalash, raqamli savdo platformalarini rivojlantirish foydali bo'ladi;

➤ Mahsulot sifatini xalqaro talablar darajasiga chiqarish, eksportga yo'naltirilgan kichik korxonalar uchun xalqaro sertifikatlash tizimini soddalashtirish, ularni texnik reglamentlar, sifat standartlari va brendlash bo'yicha qo'llab-quvvatlash muhim;

➤ Hududiy diversifikatsiyani oshirish, faqat ayrim viloyatlarda yuqori eksport ulushini shakllantirish o'rniga, barcha hududlarda diversifikatsiya siyosatini olib borish zarur. Bu eksport bazasini kengaytiradi va milliy iqtisodiyotning tashqi savdodagi barqarorligini oshiradi;

➤ Kadrlar salohiyatini rivojlantirish, kichik biznes subyektlari uchun eksport marketingi, logistika, xalqaro savdo huquqi bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ayniqsa hududiy tadbirkorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi;

➤ Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, elektron savdo platformalari va raqamli eksport tizimlarini kengaytirish orqali kichik tadbirkorlarning eksport bozoriga kirish xarajatlarini kamaytirish mumkin.

Shunday qilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda strategik omilga aylanib bormoqda. Statistik tahlillar ushbu yo'nalishda ijobiy o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Kelgusida davlat siyosatini hududiy muvozanatni ta'minlashga, eksportni diversifikatsiya qilishga va kichik tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratish zarur. Shu tarzda, kichik biznes

tashqi savdoning barqaror drayveri sifatida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 3-iyuldagi "Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2200-son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – "Kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi va eksport ko'rsatkichlari", 2015–2024 yillar statistik to'plami
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 19-martdagi kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuvi
6. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Toshkent: Sharq, 2002. – 183 b.
7. Abdurahmonova M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish. Dissertatsiya. Iqtisod fanlari nomzodi. – Toshkent, 2012.
8. Baeva Sh.X. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2015. – 120 b.
9. G'afurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: Moliya, 2016. – 208 b.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

